RESEARCH CENTRE FOR ISLAMIC HISTORY,
ART AND CULTURE
**ИСЛОМ ТАРИХИ, САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИНИ
ТАДҚИҚ ЭТИШ МАРКАЗИ**

AL-BIRUNI INSTITUTE
OF ORIENTAL STUDIES
**АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ
ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ**

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists

CURRENT CONDITIONS OF THE PRESERVATION AND RESEARCH OF ANCIENT WRITTEN SOURCES

August 2022, Tashkent, Republic of Uzbekistan

ҚАДИМИЙ ЁЗМА МАНБАЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

мавзуида 2022 йил август ойида Тошкентда бўлиб ўтган ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XVIII халқаро конференция мақолалар тўплами

Istanbul 2024



OIC | Organisation of Islamic Cooperation
IRCICA | Research Centre for Islamic History, Art and Culture
Alemdar Cd., No 15, Bâbıâli Girişi 34110 Cağaloğlu, İstanbul, Türkiye
Phone | +90 212 402 00 00 Fax +90 212 258 4365
ircica.org ircica@ircica.org
Certificate no. : 75350

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists Current Conditions of the Preservation and Research of Ancient Written Sources

Sources and Studies on the History of Islamic Civilisation Series; no. 57
© Copyright | IRCICA 2024
ISBN 978-92-9063-439-3
Istanbul 2024

Cataloguing in Publication Data

Ubaydulla Karimov International Conference of Young Orientalists on Current State of the Preservation and Research of Ancient Written Sources (18th: 2022: Tashkent, Uzbekistan)

Proceedings of the 18th International Academician Ubaydulla Karimov Conference of Young Orientalists: Current Conditions of the Preservation and Research of Ancient Written Sources, August 2022, Tashkent, Republic of Uzbekistan = Қадимий Ёзма Манбаларни Мухофаза Қилиш Ва Тадқиқ Этишнинг Долзарб Масалалари: мавзуида 2022 йил август ойида Тошкентда бўлиб ўтган ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги XVIII халқаро конференция мақолалар тўплами / edited by Mahmud Erol Kılıç and Bakhrom Abdukhalimov; prepared for publication by Ashirbek Muminov... [et al.].- Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art and Culture, 2024.

480 p.: ill.; 24 cm.- (Sources and Studies on the History of Islamic Civilisation Series; No. 57).

Includes bibliographical references.

Text in Uzbek, Turkish and Russian; abstracts in English.

ISBN 978-92-9063-439-3

1. Manuscripts--Uzbekistan--Congresses. 2. Islamic civilization--Uzbekistan--Congresses. 3. Karimov, Ubaydulla, 1920-1997--Congresses. I. Kılıç, Mahmud Erol, 1961- II. Abdukhalimov, Bakhrom. III. Muminov, Ashirbek. IV. Title. V. Series.
091.09587--dc22

Edited by: Prof. Mahmud Erol Kılıç, Prof. Bakhrom Abdukhalimov
Prepared for Publication by: Prof. Surayyo Karimova, Akbar Idiev, Prof. Ashirbek Muminov, Yekta Zülfikar, Abdusattor Jumanazarov, Oysara Madalieva
Page Layout: Selahaddin Uygur
Printing and Binding: www.bilnet.net.tr

МУНДАРИЖА

КИРИШ
Проф. Д-р Маҳмуд Ерол Кылыч **13**

ЎЗБЕКИСТОНДА ШАРҚ ҚЎЛЁЗМАЛАРИНИ САҚЛАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ
Проф. Абдуҳалимов Баҳром Абдураҳимович **15**

XULOSA 19

АННОТАЦИЯ 20

ОПЫТ РАБОТЫ НАСРАЛЛАХА АТ-ТАРАЗИ ПО КАТАЛОГИЗАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ ФОНДОВ В ЕГИПТЕ
Муминов Аширбек & Байыр Дидар **21**

DUBLET FONDI QO‘LYOZMALARI TAVSIFIGA DOIR
Faromarzi Fayzullo **26**

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ТАРИХИЙ ҲУЖЖАТЛАРНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ
Султонов Ўктамбек Абдулғаниевич **32**

МУЗЕЙ КУТУБХОНА ФОНДЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ
Идиев Акбар **38**

ҚЎЛЁЗМА ДЕВОНЛАРНИ КАТАЛОГЛАШТИРИШ ПРИНЦИПЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ
Эшонова Салимахон Нишонбек қизи **43**

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯ МАРКАЗИДАГИ МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИГА ДОИР ЯНГИ МАНБАЛАР
Ғофуров Азимжон Шарипович **49**

ИСЛОМДА ИНСОН ҚАДРИ ВА МАҚОМИ
Усманов Маҳаммадсидиқ Абдуманнонович **53**

МОВАРОУННАҲР ҚОЗИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИ: “АРХИВ”ДАН “КУТУБХОНА” КИТОБ МАТНЛАРИГА КЎЧИШИ
Муҳаммадаминов Саидакбар Абдурашидович **58**

ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ: АНЪАНАВИЙ УСЛУБЛАРДАН ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА ЎТИШ
Миркомилов Эркин & Умарова Муяссар **65**

АҲОЛИ ҚЎЛИДА САҚЛАНАЁТГАН НОЁБ МАНБАЛАРНИ СОТИБ ОЛИШ АМАЛИЁТИ: АСОС, БОСҚИЧ ВА МУАММОЛАР
Исламов Шарифжон & Шарипов Бекзоджон **72**

НОДИР ҚЎЛЁЗМА АСАРНИНГ РЕСТАВРАЦИЯ ЖАРАЁНИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ
Ходжаева Башорат Зафаржоновна **76**

НОЁБ ҚЎЛЁЗМА АСАР МУЛЯЖИ ҚАНДАЙ ТАЙЁРЛАНАДИ?
Аминов Санжар Сирожжиддин ўғли **80**

БУЮК БРИТАНИЯ ВА ФРАНЦИЯ КУТУБХОНАЛАРИДА САҚЛАНАЁТГАН ТУРКИЙ ҚЎЛЁЗМАЛАР ХУСУСИДА
Джуманиёзова Феруза Джуманазаровна **84**

SULTAN ŞÂHRUH’UN HAZİNE MÜHRÜ BASILAN ESERLER ÜZERİNDE BİR DEĞERLENDİRME
Makhmudjonova Gulzoda **88**

ДОМЛА ИКРОМНИНГ “РИСОЛАЙИ ФОРСИЯ ДАР БАЁНИ ВУЖУБИ САТРИ НИСО” АСАРИ ҲАҚИДА
Жамолова Дилноза Муйидиновна **94**

«ТАРЖУМОН АЛ-ҚУРЪОН» АСАРИНИНГ ҚЎЛЁЗМА НУСХАЛАРИ ТАВСИФИ
Мустафаев Достон Шухратович **99**

ДАГЕСТАН – ЖЕМЧУЖИНА АРАБСКОЙ РУКОПИСНОЙ ТРАДИЦИИ НА СЕВЕРНОМ КАВКАЗЕ
Исмаилова Алмаз Мусаевна **103**

“ФАТОВОИ ХОНИЯ” АСАРИНИНГ МУХТАСАРИ ҲАҚИДА
Мамашикуров Бекназар Бобомурадович **112**

ИБН СИНО – СЕВИЛЬЯ ВА ҚУРТУБА ШОҲИ
Маҳмудов Отабек Валижонович **117**

МУСТАМЛАКА ДАВРДА ПАХТАЧИЛИККА ОИД ҲУЖЖАТЛАР ТАСНИФИ
Мирзаев Авазбек Толибжонович **125**

ТАРИХИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАДҚИҚИДА МЕТРОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ
Нарзуллаева Ниҳола Абдурахмановна **128**

АБУЛҒОЗИХОННИНГ “ШАЖАРАЙИ ТУРК” АСАРИ ЕВРОПА ШАРҚШУНОСЛИГИДА ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМА СИФАТИДА
Тошов Нурёғди Искандарович **131**

МУЛЛА ШАМСИДДИН ШАВҚИЙНИНГ “ТАРИХ-И ШАВҚИЙ” АСАРИ
Қўлдашев Шерали Темиралиевич **138**

“КАШФ АЗ-ЗУНУН” АСАРИДА ҚАЙД ЭТИЛГАН МАРКАЗИЙ ОСИЁЛИК ФАҚИҲЛАР ҲАҚИДА
Маҳкамова Дилёра Шавкатовна **143**

“МАВОҲИБИ АЛИЙЯ”НИНГ ФАКСИМИЛЕ НАШРИ ҲАҚИДА
Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич **150**

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ «ЛАТА’ИФ АЛ-АМСАЛ» РАШИДУДДИНА ВАТВАТА
Анварова Маърифат Нарзуллоевна **157**

“РАБИЪ АЛ-АБРОР” АСАРИНИНГ ТУРКИЯ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ХУСУСИДА
Тўраев Лазиз Абдивали ўғли **164**

РОЛЬ КЛИНОПИСНЫХ ДОКУМЕНТОВ ИЗ КЮЛЬТЕПЕ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ДРЕВНЕЙ АНАТОЛИИ
Шалдарбекова Ажар Беккеновна **169**

TİMUR DÖNEMİ NEBATÎ NAKIŞLARI: SEMERKAND TUMAN AKA MAKBERESİ VE BURSA YEŞİL CAMİİ
Akyüz Merve **175**

САЪДИЙ “ГУЛИСТОН”ИНИНГ ТУРКИЙ ТИЛДАГИ ЯНГИ ТАРЖИМАСИ (XIV АСР ОХИРИ – XV АСР БОШИ)
Эркинов Афтондил Садирханович **179**

FRANSUZ SHARQSHUNOSLIK MAKTABLARI TARIXIDAN
Ostonov Jahongir **184**

ТОЖИК ОЛИМЛАРИНИНГ МУҲАММАД ҲАКИМХОННИНГ “МУНТАХАБ АТ-ТАВОРИХ” АСАРИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ТАДҚИҚОТЛАРИ
Абдукаримов Джамолиддин Аҳмадалиевич **189**

КУШОН ИМПЕРИЯСИ ВА ХАН, ВЕЙ СУЛОЛАЛАРИ МУНОСАБАТЛАРИ
Азимов Хуршид Хакимович **194**

СЕРГЕЙ ЮРЕНЕВ МЕРОСИДА БУХОРО ТАРИХИ МАВЗУСИ
Болтаев Аъзам Ҳомидович **198**

АЛ-БАЛОЗУРИЙНИНГ “ФУТУҲ АЛ-БУЛДОН” АСАРИДА ШОШ ФАТҲИНИНГ ЁРИТИЛИШИ
Алимов Зуҳриддин Исамутдинович **202**

«ЖАҲОНГИРНОМА» АСАРИДА БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИ ВА МОВАРОУННАҲР МУНОСАБАТЛАРИ
Йўлдашев Ботир Ўролович **207**

ВОСТОЧНЫЕ НАРОДЫ НА СТРАНИЦАХ «ПОВЕСТИ ВРЕМЕННЫХ ЛЕТ»
Пилипчук Ярослав Валентинович **210**

АМИР ТЕМУР ШАХСИГА ОИД ТАРИХИЙ ТАСАВВУРЛАР ТАҲЛИЛИ
Султонов Комилжон Аслонович **220**

УБАЙДУЛЛАХОННИНГ ШАЙБОНИЙХОН ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИДАГИ ИШТИРОКИ
Файзуллаев Фаррух Эшқабулович **227**

“ТАФҲИМ” АСАРИДА КЕЛТИРИЛГАН ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТЛАР
Куранбаева Умида Султанназаровна **232**

АМУДАРЁНИНГ ИРМОҚЛАРИ ВА ЧОРРАҲАЛАРИ “БОБУРНОМА”ДА
Шарипов Азизжон Азимович **239**

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ «БОЛЬШОЙ ИГРЫ»: ТУРКЕСТАН В РАБОТАХ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ АВТОРОВ
Абдурасулов Хушнуд Абдуллаевич **253**

“AL-OSOR AL-BOQIYA” ASARINING O‘RGANILISHI MUAMMOLARI
Usmonov Husan Toshtemirovich **261**

РОЛЬ УБАЙДУЛЛА-ХАНА В РАЗВИТИИ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ШЕЙБАНИДАМИ И ОСМАНАМИ
Разаков Фаррух Абдумўминович **267**

ФИТРАТНИНГ “ДЕВОНУ ЛУҒОТИ-Т-ТУРК” ГА ОИД МАНБАШУОСЛИК ВА МАТНШУНОСЛИК ТАДҚИҚОТЛАРИ
Сатторова Зилола Исмаиловна **274**

“АМУДАРЁ БЎЛИМИ ДЕВОНХОНАСИ” ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЛКА СОЛИҚ ТИЗИМИ
Абдухалилова Азиза Эркиновна **281**

BOYMIRZA HAYITNING “TURKISTON: RUSIYA VA XITOY ORALIG‘IDA” KITOBI MUHIM MANBA SIFATIDA
Tojiyev Dostonjon Beknazar o‘g‘li **287**

СУФИЙСКИЕ И КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В “ДИВАНЕ” ДЖАХАНШАХА ХАГИГИ КАРАКОЮНЛУ
Гаджиева Кёнюль Гамидовна **293**

НАВОИЙНИНГ XVI АСРГА ОИД “ТЕРМА ДЕВОН”ЛАРИ ТАРКИБИ: ҒАЗАЛДАН БОШҚА ЖАНРЛАРИ ТАДҚИҚИ
Мадалиева Ойсара Рустамовна **298**

XVI-XVII АСР МАНБАЛАРИДА МУҲАММАД ШАЙБОНИЙХОН АДАБИЙ КЕЧАЛАРИ
Қораев Шерхон Пўлатханович **323**

“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDAGI NAZMIY ASARLARNING GRAFIK SHAKLLANTIRILISHI
Soatova Gulzoda Nurmamat qizi **332**

ДЎСТМУҲАММАД ФИРОҚИЙНИНГ ТУРКИЙ ДЕВОНИГА ОИД АЙРИМ МУХАММАСЛАР ХУСУСИДА
Зокирова Дурдона Собиржон қизи **339**

“ҚАЛОИДУ-Л-АДАБ”ДА ШАРҚОНА АХЛОҚНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ
Шерова Мавзуна Маъмуровна **344**

КУЛ ТИГИН ВА БИЛГА ХОҚОН БИТИГЛАРИДА КЕЧГАН ХОҚОН СЎЗИНИНГ ЧОҒИШТИРМА ТАҲЛИЛИ
Содиқов Қосимжон Позилович **350**

МОНИЙ ХАТИНИНГ ТУРКИЙ ТИЛЛИ МАТНЛАРГА МОСЛАШУВИ МАСАЛАСИ
Алимухамедов Рихситилла Абдурашидович **354**

ЧИНГИЗ АЙТМАТОВНИНГ ТУРКИЙ ТИЛЛАР ҲАҚИДА ЛИНГВИСТИК ВАСИЯТИ
Каримов Бахтиёр Раҳманович **360**

АЛИ САФИ КОШИФИЙ ҲАРАВИЙ – МОҲИР ХАТТОТ ВА ХОС КОТИБ (“ШАРҲ-И ФУСУС АЛ-ҲИКАМ” АСАРИНИНГ НУСХАСИ МИСОЛИДА)
Умурзоқов Баҳриддин Сафарович **365**

ЗАМОНАВИЙ АРАБ ВА ЎЗБЕК ҲИКОЯЛАРИДА “ЮСУФНОМА” МАВЗУСИ
Мухиддинова Дилафруз Зуҳриддиновна **371**

ЎРТА АСР МУСУЛМОН ОЛИМЛАРИНИНГ МЕРОСИ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИК ОБЪЕКТИ СИФАТИДА
Абдупаттаев Мумин Мирзо Муроджон ўғли **376**

“МИЪЁР АТ-ТАДАЙЙУН” АСАРИДА ИЙМОН МЕЗОНЛАРИ ВА ДИНИЙ НИЗОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСЛУБЛАРИ
Наимов Исмат Нусратиллоевич **385**

ИСЛОМДА БИЛИМЛАР ТРАНСМИССИЯСИ: ЎЗБЕКИСТОНДА ДИНИЙ АДАБИЁТ ВА ДИН ТАЪЛИМИ ДАРСЛИКЛАРИ
Халилова Зилола Эркиновна **395**

«ШАРҲ АТ-ТАЪАРРУФ» ҚЎЛЁЗМАЛАРИ: ХОЖАГОН-НАҚШБАНДИЯ РИВОЖИДАГИ РОЛИ
Раҳимов Комилжон Раҳматович **401**

ШАРҚ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРИНИ АСРАШГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР
Қориев Одилжон Аҳмаджонович **413**

НИЗОМИЙ ГАНЖАВИЙНИНГ “ХАМСА” ДОСТОНИГА ИШЛАНГАН МИНИАТЮРАЛАРДА СЮЖЕТ ВА ОБРАЗЛАР БАДИИЙ ТАЛҚИНИ
Рахматуллаева Асалхон Гайратовна **418**

АБРИ БАҲОР САНЪАТИНИНГ ҚАЙТА УЙҒОНИШИ (Муқовасозлик санъати мисолида)
Саидова Нодира Ғанишер қизи **426**

АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ ХАЗИНАСИДАГИ МЎЪТАБАР ҚЎЛЁЗМАЛАР ВА НАФИС МЎЪЖАЗ РАСМЛАРНИ ЎРГАНИШ
Мадраимов Абдумажид Абдураимович **432**

ОТЧЕТЫ ДОМОВ-МУЗЕЕВ ТАШКЕНТА КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК
Муродов Абдували Мухтор угли **439**

ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ИСБОТ АЛ-‘ИЛАЛ” АСАРИДАГИ ФИҚҲИЙ ҚАРАШЛАРИ ТАҲЛИЛИ447
Усмонов Иброҳим Собирович **447**

АВТОРЛАР 457

ИЛЛЮСТРАЦИЯЛАР 461

ON THE DESCRIPTIONS OF MANUSCRIPTS FROM THE FUND OF DUPLICATES

DUBLET FONDI QO‘LYOZMALARI TAVSIFIGA DOIR

Faromarzi Fayzullo
Faromarzi Fayzullo

This article discusses issues related to the process of describing the 5247 volumes of manuscripts kept in the *Fund of Dublicates* the Institute of Oriental Studies. In our research, the main purpose of the establishment of the *Fund of Dublicates*, created within the *Fund of Manuscript* of the Institute of Oriental Studies, and its results were analyzed, taking into account the current situation in the fund. After all, it turned out that some of the identified situations in the fund do not correspond to the purpose of its creation. For example, some copies of the manuscripts in the fund turned out not to be duplicates, but the main ones. About 10 copies turned out to be lithographs. Also, the *Fund of Doublicates* contains copies of manuscripts that are not available in the Fund of main.

Problems identified in the process of describing the manuscripts, news and the scientific significance of the existing manuscripts are discussed. Manuscripts available in the fund are classified according to their language and scientific fields. Attention was paid to the different aspects of the fund from the Fund of main of the Institute. Along with this, the process of compiling the catalog of manuscripts of the *Fund of Doublicates*, its purpose, some specific difficulties that arose during the work process, and the importance of this work are also discussed.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tashkil etilganidan (1943 yil) buyon ajdodlarimiz ilmiy merosi bo‘lgan yozma manbalarni o‘rganish, tadqiq va targ‘ib qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Ularni saqlash, ta’mirlash hamda kataloglashtirish jarayonlari ham Institutning asosiy tadqiqot yo‘nalishlariga aylangan. Qadimgi yozma manbalarni tavsiflash, ularni ilmiy muomalaga kiritishning dastlabki bosqichlaridan biri. Kataloglar tadqiqotchilar uchun qo‘lyozmalar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi muhim qo‘llanma hisoblanadi.

Institut faoliyati davomida bu sohada bugungi kunga qadar (1952-1987 yy.) 11 jildli SVR katalogi [4], 40 dan ortiq fan sohalariga doir kataloglar (1993 yildan hozirgi kungacha), asosiy fondning elektron katalogi [7] (2008-2013 yy.) kabi fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayni damda ham Institutning “Qo‘lyozmalarni kataloglashtirish va elektron kataloglarni texnik nazorati” va “Tarixiy hujjatlar tadqiqi” bo‘limlarida bu jarayon davom etmoqda.

Taqdim qilinayotgan ushbu maqolada Sharqshunoslik instituti Dublet fondida saqlanadigan 5247 jild qo‘lyozmani tavsiflash jarayoni bilan bog‘liq masalalar haqida yuritiladi. Tadqiqotimizda Sharqshunoslik instituti “Qo‘lyozmalar fondi” tarkibida tuzilgan Dublet fondini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad va uning natijasi fondda mavjud vaziyatni inobatga olgan holda tahlil qilindi. Tavsiflash jarayonida aniqlangan muammolar,

yangiliklar va mavjud qo'lyozmalarning ilmiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Fondda mavjud qo'lyozmalar ularning tili va fan sohalariga ko'ra tasnif qilinadi. Fondning Institut Asosiy fondidan farqli jihatlariga ham e'tibor qaratiladi. Shu bilan birgalikda, Dublet fondi qo'lyozmalar katalogini tuzish jarayoni, undan ko'zlangan maqsad, ish jarayonida vujudga kelgan ayrim o'ziga xos qiyinchiliklar va bu ishning ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

Ayni kunlarda Institutning "Qo'lyozmalarni kataloglashtirish va elektron kataloglarni texnik nazorati" bo'limi xodimlari tomonidan Dublet fondi qo'lyozmalarining qisqa katalogini tuzish ustida ish olib borilmoqda. Tavsiflar jarayonidan ma'lum bo'ldiki, qo'lyozmalarni Dublet fondiga kiritish jarayonida yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklar sabab, uni tashkil etishda ko'zda tutilgan ilk maqsad to'liq amalga oshmagan. Institut Dublet fondi qo'lyozmalarni bari Asosiy fondda mavjud qo'lyozmalarining nusxalari emas. Ya'ni bu yerda Asosiy fondda mavjud bo'lmagan asar va to'plamlar ham mavjud (m: № Д 1197; Д 3350/4; Najmiddin Kubro "Usuli ashrata" (10 usul)-Д 29/4; "Ravzat ul-ahbob"-Д 1829; "Qissa-i Holot-i Amir Temur"-Д 2334; ["Risola-i Turkiston"]-Д 2740/4; "Ma'rifat al-masohat"-Д 3433/2, "Salot-i Mas'udiy"-Д 4878 va h.k.). Shuningdek, ayrim qo'lyozmalarning Dublet fondida saqlanadigan nusxalari qadimiyroq va asosiy nusxa bo'lib, Asosiy fonddagi nusxasi ikkinchi darajali (keyinroq ko'chirilgan, yoki nodir emas) ekanligi ham aniqlandi (m: № Д 3678; Д 3686; Д 3722; Д 3730 (avtograf bo'lishi mumkin); Д 3757; Д 4348 (1619 yil); Д 4575 (1461 yil); Д 4878).

Institut fondiga yangi qabul qilib olingan qo'lyozmalar agar nuqsonli (muqovasi yo'qligi, boshlanish va oxirgi qismlarining mavjud emasligi), yoki zararlangan (namlik, termitlar va emirilish ta'sirida kerakli qismlarini o'qishning iloji yo'qligi kabi) bo'lsa Dublet fondiga o'tkazilgan. Ko'p hollarda ayni mana shu sababdan qo'lyozmalar garchi asosiy nusxa bo'lgan bo'lsada mazkur fondga kiritilgan. Yana shu ham ma'lum bo'ldiki fond tarkibiga 10ga yaqin toshbosma asar nusxasi ham o'tib qolgan ekan (m: № Д 578, Д 2951, Д 3404, Д 4060, Д 4444 va h.k).

Sharqshunoslik institutining Dublet fondida mavjud 5247 jild qo'lyozma tarkibini arab, fors va turkiy (o'zbek) tillardagi taxminan 13 mingga yaqin turli fan sohalariga doir asar nusxalari tashkil qiladi. Tajriba davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, mazkur fondda mavjud har bir qo'lyozmada 1 donadan 35tagacha asar mavjud[1]. Shu hisobda Dublet fondida mavjud har bir qo'lyozmaga taxminan 2-2,5 ta asar to'g'ri keladi. Demak, fondda mavjud asarlar soni qo'lyozma jildlariga nisbatan ikki yarim barobar ko'p. Institut Asosiy fondida esa, jamg'armada mavjud qo'lyozma jildlariga ko'ra, ularda joylashgan asarlar soni uch marta ko'proq ekanligi tadqiqotlarda o'z aksini topgan [3, 11].

Dublet jamg'armasidan o'rin olgan qo'lyozmalarni til nuqtayi nazaridan tasniflaganda, ularning 10%-ini turkiy (o'zbek, turk, azarbayjon), 30%-ini fors-tojik, 55%-ini arab va qolgan 5-%-ini aralsh (arb-fors, fors-turkiy, yoki arab-turkiy) tillardagi asarlar tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Ular fan sohalariga ko'ra fiqh, falsafa, mantiq, hadis, tasavvuf, didaktika, tafsir, kalom, aqoid, adabiyot, tilshunoslik (asosan arab tili grammatikasi), san'atshunoslik, tibbiyot, kimyo, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, tarixiy geografiya, astrologiya, ma'danshunoslik, dorishunoslik kabi 20 ga yaqin ilm-fan tarmoqlariga oid asarlardan iboratdir. Shuningdek, Qur'oni karim nusxalari (300dan ortiq), turli mavzudagi hoshiya,

1 Institut Asosiy fondida № 2385 raqamli tarkibida 100ta asar mavjud bo'lgan qo'lyozma bor.

sharh va risolalar, ta'birnoma, pandnoma, dinshunoslikka doir asarlar hamda qozilik to'plamalari va tarixiy hujjatlar majmualari (m: № D 101/1, D 325) ham o'rin olgan. Fondda o'rta asrlar kishilik jamiyatining kundalik hayotida ko'p qo'llaniladigan dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik kabi turli kasb sohalariga doir risolalar ham mavjud.

Fondda mavjud asarlarning katta qismi (2000dan ortig'i)ni fiqhiy asarlar (jumladan: "Muxtasar ul-viqoya" asarini 400ga yaqin, "Fiqh-i Kaydoniy" asarini 130ga yaqin, "Hidoya" asarining 40dan ortiq nusxalari) va arab tili grammatikasiga doir (1850ga yaqin) kitoblar (100ga yaqini Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning "Risola-i Tasrif", "Harakot al-i'rob", "Risola fi-l-huruf" asarlari nusxasi) hamda ularning ko'p sonli nusxalari tashkil qiladi.

Dublet fondi tarkibida: 1700dan ortiq *Islom teologiyasiga* oid (m: Kalom ilmiga oid Ahmad Jandiy "Risola-i Ahmad Jandiy"-Д 4417/2); 1350 ga yaqin *mantiqqa* oid (m: Ali ibn Umar al-Kotibiy al-Qazviniy "Risola-i mantiq"-Д 83/1); 1000ga yaqin *aqoid* ilmiga oid (m: "Aqoid-i Nasafiy"ning 200ga yaqin, "Sharh-i Aqoid-i Nasafi"ning 200ga yaqin); 1000 ga yaqin *adabiyotga* oid (800dan ortiq nazmiy, 100dan ortiq nasriy asarlar (m: Mirzo Abdulqodir Bedil (115ta), Hofiz Sheroziy (75ta), Alisher Navoiy (50ta), Jaloliddin Rumiy "Masnavi-yi Ma'naviy"si (20ga yaqin); *falsafaga* oid 460 ta (m: Sa'diddin Taftazoniy "Sharh-i Zanjoniy"-Д 375/5); 362 ta *tasvvufga* oid (m: Farididdin 'Attor "Pandnoma-i 'Attor"-Д 26/4, "Mantiq ut-tayr"-Д 72, Najmiddin Kubro "Risolata 'ashra" ("O'n usul")-Д 29/4, Mirzo Abdulqodir Bedil "Chahor unsur"-Д 57/3, So'fi Ollohyor[2] "Maslak ul-muttaqin"-Д 587, Ahmad Yassaviy "Devon-i Hikmat"-Д 1757); 130dan ortiq *didaktikaga* oid (m: Burhoniddin Zarnuji "Ta'lim al-muta'allim"-Д 5220/1); 100ga yaqin *tarixga* oid (m: Tabariy "Tarix-i Tabariy"-Д 2643, Ahmad ibn Muhammad Mullozoda "Tarix-i Mullozoda"-Д 632/1, Farididdin Attor "Tazkirat ul-avliyo"-Д 3212, Fazlulloh Jamol al-Husayniy "Ravzat ul-ahbob"-Д 1829, Muhammad Yusuf bin Xoja Baqo "Tazkira-i Muqimxoniy"-Д 1954/1, Sayid Muhammadxoja bin Ja'farxoja "Qissa-yi holot-i Amir Temur"-Д 2334, Burhoniddin Rabg'uziy "Qisas al-Anbiyo"-Д 2627, muallifi noma'lum "Risola-i Turkiston"-Д 2334); 32ta *meditsinaga* oid (m: Muhammad ibn Umar Chag'miniy "Risola-i qonuncha"-Д 37/8, Д 37/8); 32ta *matematikaga oid* (m: Ali Qushchi "Kitob-i hisob" Д 505/2"); 22ta *astronomiyaga* oid (m: Muhammad ibn Umar Chag'miniy "Al-kitob fi hayot al-olam"-Д 132/7, "Al-mulaxxas fi-l-hay'a"-Д 37/8); 18ta *geografiyaga* oid (m: Tojiddin Hakim Xorazmiy "Risola dar masohat-i ro'y-i zamin"-Д 1536/5); 10ga yaqin *geometriyaga* oid (m: Sa'duddin 'Umar Taftazoniy "Tasovi az-zuvayo" Д 4409/6) asarlar va yana 10 ga yaqin qozilik, vaqf, hisob-kitob hujjatlari kabi yuridik turkumidagi tarixiy hujjatlar va maktublar to'plamlari nusxasi (m: Д 101/1; Д 325; Д 832; Д 4903; Д 5211 vhk.) mavjud.

Ko'rinib turibdiki, Fond qo'lyozma jildlaridagi asarlarning katta qismi arab va fors tilida hamda ular mavzusiga ko'ra fiqh, Islom falsafasi, mantiq, tasavvuf, tafsir, aqoid va arab tili grammatikasi kabi islomiy fanlarga doirdir. Buning asosiy sababi, o'rta asrlarda asosiy ta'lim maskani madrasalar bo'lgan hamda kitoblarning katta qismi madrasalar qoshida ko'chirilgan. Ya'ni asosiy ta'lim tili arab tili bo'lgan madrasalarda tayyorlanadigan kitoblarning katta qismi ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlarga doir darslik va qo'llanmalar bo'lib, ular xushnavis madrasa muddarislari va toliblari tomonidan buyurtma yoki shaxsiy

2 Dublet fondida So'fi Ollohyor asarlari ("Maslak ul-muttaqin", "Sabot ul-ojizin" va "Siroj ul-ojizin")ning 14 nusxasi mavjud.

ehtiyoj uchun tayyorlangan. Bu davrda kitobat qilish yaxshi rivojlangan yana bir joy bu podshohlarning saroy kutubxonasi bo'lgan.

Dublet fondi qo'lyozmalaridan o'rin olgan asarlarning fan sohalari va mualliflari kesimidagi tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, bizgacha nusxasi ko'p miqdorda yetib kelgan asar ta'lim dargohlarida o'z yo'nalishi bo'ycha asosiy qo'llanma bo'lgan.

Fondda mavjud qo'lyozmalar ko'chirilgan joyi geografiyasiga nisbatan juda keng hududlarni qamrab olgan bo'lib, bu mavzu alohida tadqiqotni talab qiladi.

Ayni damda Sharqshunoslik institutining "Qo'lyozmalarni kataloglashtirish va elektron kataloglarni texnik nazorati" bo'limi xodimlari tomonidan nashrga tayyorlanayotgan Dublet fondi qo'lyozmalarining rus tilidagi qisqa tavsifi asosidagi katalog (Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан Краткий каталог Дублетного фонда)da qo'lyozma va asar to'grisidagi quyidagi asosiy 8ta ma'lumotga etibor qaratilgan: Qo'lyozmaning inventar raqami (1); asar nomi (2); muallifi (yashagan yili, agar ma'lum bo'lsa (3); tili (4); fan sohasi (5); hajmi (6); kitobning ko'chirilgan yili va ko'chiruvchisi (agar qayd etilgan bo'lsa (7) hamda kitobning kamchiliklari (8). Shu asosda mazkur tavsif quyidagicha tartibda nashrga tayyorlanamoqda:

1-Namuana.

Д 3645
التوضيح فى حل غوامض التنقيح
a. Автор - عبيد الله بن مسعود بن تاج الشريعة البخارى - Убайдуллах б. Масъуд б. Тадж аш-шариъат ал-Бухари (ум. в 747/1346 г.). 284 лл. Фикх. Дата переписки - 1214/1799-1800 гг. محمد اسحاق بن ميرزا اسماعيل - Мухаммад Исхак б. Мирза Исма'ил. Дефект - без обложки.

2-Namuna.

Д. 1926/1
رساله فرض عين
п. Автор - [имя автора не указано]. ١٣ лл (1а-13б). Фикх.

Demak, ushbu tavsifdan ko'rinib turibdiki, Dublet fondi qo'lyozmalarining inventar raqamini asosiy fond qo'lyozmasi raqamidan farqlash maqsadida uning raqami "D" (Д) harfi bilan maxsus kodlangan [5, XV]. Yuqoridagi tavsifning 1-namunasi 8 parametr bo'ycha barcha ma'lumotlarini topish imkoni mavjud qo'lyozmalar, 2-namuna ayrim belgilarini aniqlashning iloji bo'lmagan qo'lyozmalarga tegishli. Mazkur tavsif garchi qisqartirilgan tavsif bo'lsada, tadqiqotchi uchun mavjud qo'lyozmalar to'g'risida boshlang'ich va asosiy ma'lumotlarni taqdim eta oladi.

Dublet fondini katalaoglashtirish jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklarga ham duch kelindi. Asosiy qiyinchilik Dublet fondida ko'p sonli zararlangan qo'lyozmalarning mavjudligida edi. Zero, qo'lyozmaning qay holatda (namlik yo termitlar sabab zararlangani) yetib kelganligi, to'liq bo'lmagani, boshlanish va oxrigi varaqlarining mavjud emasligi asar va qo'lyozma to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, aksariyat zararlanmagan holatda yetib kelgan qo'lyozmalarda

ham asar nomi, muallifi, koʻchiruvchisi va koʻchirilgan yili qayd etilmay qolishi soha mutaxassislariga maʼlum. Asar nomi va muallifi koʻp hollarda tegishli fan sohasi mutaxassislari tomonidan uning mavzulari yoki kitobning boshqa nusxalari bilan solishtirgan holda aniqlanadi. Biroq, kotib va koʻchirilgan yil kitobda aks etmagan boʻlsa, tavsifning shu bandi ochiq qoladi. Faqatgina ayrim mashhur xattotlarni ularning xat uslubidan ajratib olish mumkin xolos. Tavsif jarayonidagi yana bir qiyinchilik, qoʻlyozma varoqlarining sahifalanmaganligida, yoki paginatsiya jarayonida xatolikka yoʻl qoʻyilganligida edi.

Fond tarkibida akt qilingan (m: Д 2; Д 939; Д 963; Д 1026; Д 1065; Д 2692) akt qilib oʻrniga kitob qoʻyilmagan (m: Д 981; Д 2349), bitta raqam bilan raqamlangan, aslida alohida-alohida kitob boʻlgan (m: Д 269, Д 3573) va tarixiy hujjatlar (vaqfnoma, cheklar, vasiqa ariza, maktub va boshqa yuridik hujjatlar) toʻplamidan iborat boʻlgan (m: Д 325, Д 832, Д 3005/4, Д 4903, Д 5211) qoʻlyozmalar ham uchraydi.

Soʻnggi yillarda qoʻlyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish masalasiga davlat tarafidan ahamiyat berilishi ham mazkur sohaga doir tadqiqotlarning zarur ekanligidan dalolat beradi [1; 2].

Xulosa oʻrnida aytib oʻtish joizki, Dublet fondida saqlanadigan qoʻlyozmalarni kataloglashtirish ayni paytda Sharqshunoslik institutining muhim vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda. Bu masalaning qay darajada zarurligini tavsiflar natijasidan olingan va yuqorida ketirilgan Dublet fondi haqidagi bir qism xulosalar ham koʻrsatib turibdi. Hozircha Dublet fondini tavsiflash jarayoni bilan bogʻliq maskur masalalar bilan cheklanamiz va qolgan muammolarni keyingi tadqiqotlarga qoldiramiz.

Demak, Dublet fondini kataloglashtirish jarayonida shu narsa maʼlum boʻldiki, uni tarkibidagi qoʻlyozmalarning bari Asosiy fondda mavjud qoʻlyozmalarning nusxasi emas ekan. Ayrimlari hatto Assosiy fonddagidan koʻra qadimiyroq nusxa hisoblanadi. Manbashunoslik nuqtayi nazaridan, har qanday nusxa ham ilmiy tadqiqotlar uchun oʻz oʻrniga ega. Zero ayrim ikkinchi darajali nuxsalarda, asosiysida mavjud boʻlmagan maʼlumotlar uchrab turishi maʼlum. Fondda mavjud qoʻlyozmalarning har biri Sharq mamlakatlarining tarixi, ilm-fani va madaniyati tarixi, oʻzaro aloqalari va diplomatik munosabatlari, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotini oʻrganishda muhim manba vazifasini oʻtaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2995 sonli qarori. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida // https://lex.uz/docs/-3211987
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-126 sonli qarori. qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida // https://lex.uz/uz/docs/-5854226
3. Абдуҳалимов Б. Қўлёзмалар хазинаси // Шарқ қўлёзмалари хазинаси. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тошкент, 2012.
4. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. 11 Том (Под редакцией и при участии: А.А.Семенова (1-6, 8), Д.Г.Вороновского (6, 8, 10), А.Урунбаева (7, 9, 11), Л.М. Епифановой (7, 9), Р.П. Джалиловой (11). – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР («Фан»). 1952-1987 гг.

5. Marie Efthymiou. Note au lecteur, in: *L'art du livre en Asie central de la fin du XVI^e siècle au dèbut du XX^e siècle. Ètude des manuscrits Coraniques de L'Institut d'Orientalisme Abû Rayhān Bīrûnī.* – Leyden/Boston, Brill, 2015. P. XV.

6. Sharqshunoslik instituti Dublet fondi qo'lyozmalari. № D 1 - D 5247.

7. Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi qo'lyozmalarining elektron katalogi // http://scam.beruni.uz/scam/